Qutlughxon Shokirov

Ikki Turkiston Ghururi

(1991)

Bismillahir rohmanir rohiym. Ulugh tangrimiz - Ollohga cheksiz shukrlar bólsinkim, yaqin bir yarim asr davomida ozodlikning hayotbaxsh sharbatiga chanqoq Turkiston ahlining kópchiligiga hurriyat nasib bóldi.

Buning sharofatidan shonli tariximizni soxtalikning ólaksa qobiqlaridan tozalay boshladik, ma'naviyatimizni yaxshi niyatlar-la taftish qilmoqdamiz, ulughlarimiz merosidan chin insoniy qadriyatlarni ularga amal qilish uchun izlamoqdamiz. Bu sa'y-harakatlardan olinajak natijalar ma'naviy kamolotni xoh ongli, xoh ongsiz ravishda moddiy rivojlanishdan oliyroq deb tushunib kelgan bizning ixlosli xalqimiz uchun havo va suvdek zarur, shu bugunda. She'riy merosidan namunalar berilayotgan muallif - Alixontóra Soghuniy faoliyati va ijodi bilan tanishuv ham mazkur fikrga aynan dalil bóladi, inshoolloh! «Har ishga oxirida baho berilur. Barcha ishning asosi tuganchisidir», degan hadisi sharifning haqligiga tasdikan otamiz rahmatli haqida xalqimiz dastavval ul kishining ijodiy mehnatlari samaralari bilan tanisha turib, tasavvur hosil qila boshladi. Vaholanki, tarjimasi chuqur komusiy bilim va igna bilan kuduk qazishdek beadad sabrni talab qiluvchi Amir Temur Taraghay Bahodir óghli kalamiga mansub «Temur tuzuklari», Ahmad Donishning «Navodir-ul vaqoe», Darveshali Changiyning «Musiqa risolasi» asarlarining ózbekchaga ógirilishi ona Turkiston fozila madaniyatini saqlab qolish yólida xolis bajarilgan ulkan xizmatning debochasi edi. Ulardan bahramand bóla olganlar, ushbu ishni eng oliy maqomda bajaruvchi faqat kuchli allomagina emas, balki zabardast tarixiy shaxs ekanligini payqay boshladilar. Bunday mushohadalarni qandaydir sirli qilib qóyayotgan sabablardan biri yana shunda ediki, muallif tóghrisida el orasida bir tomondan «komil diniy olim», «marshal ota», «xitoylik general», «Uyghurlarning hibs qilingan podshosi» degan, ikkinchi tomondan «sovetlar dushmani», «panislomist, panturkist», «siyosiy kochoq», «Stalinning yaqini», «KGB bilan hamkor», «ózbek sovet razvedkachisi» kabi ovozalar yurardi. Hukumat idoralarida mas'ul bólib ishlab yurganlar esa Alixontóra haqida, odatda, sukut saqlardilar.

Alixontóra faoliyati haqida AQSh, Turkiya, Xitoy, Rusiya kabi turli mamlakatlarda chop etilgan ilmiy-tarixiy asarlarda ancha ma'lumotlar keltirilgan. Ular, bizning bilishimizcha, yirik kamchiliklardan xoli emas. Haqqoniy va xolisona maqolalar sónggi 1-2 yil ichida O'rta Osiyo jumhuriyatlari, xususan, O'zbekiston vaqtli matbuotida e'lon qilina boshladi. Afsuski, ularda ham qator noaniqliklarga yól qóyildi. «Tarix haqida qoghoz qoralaganda, ilm odobiga kóra bir oghiz sóz ham ortiqcha qóshmaslik yo kamaytmaslik farz», degan otamiz kórsatmalariga rioya aylab hamda qayd etilgan qusurlarni bartaraf etishni ham kózda tutib, quyidagilarni ma'lum

qilishga kirishdim. Umid qilamanki, bul - otamiz hakida shu kungacha bizda e'lon qilingan tarjimai holiy maqolalarning tóliqroghi bólajak.

Tarixdan ma'lumki, 1881 yili Turkmanistondagi Kók qal'a istehkomini konli janglardan keyin chor qóshinlzri ishghol qildilar va bu bilan chorak asr, balki undan ham kóp, surunkali bosqinchilik urushlaridan sóng butun Turkiston mustamlakaga aylantirildi. Vatanimiz óz erkidan ajrab, qullik zulmatiga chómgan xuddi shu davrda Qirghizistondagi Tókmoq shahrida navróz kuni ózbek oilasida ikkinchi óghil - mening otam Alixontóra tavallud topdilar. Onalarining ismi - Norbuvi, afsus, ular haqida bilganlarim hozircha juda oz.

Otalari Shokirxontóra asli andijonlik, naqshbandiya sulukiga mansub diniy olim bólib, Shokirxója eshon nomi bilan ham mashhur edilar. Katta buvamiz Muxammadxója, ularning otalari Mirniyozxója va shu yósinda yigirma nechanchi buvamiz Qilich Burhon ekanlar, bularning maqbaralari hozir ham O'zgan shahrida qad kótarib turibdi.

Ikki oghiz sóz Tóqmoq shahri haqida. Ushbu kent kadimiy turk beshiklaridan hisoblanghan, qoraxoniylar davrida poytaxt bólgan mó‘tabar Bolasoghun shahri qalmoqlar bilan tengsiz qurashda xarob bólgach, uning shundoq yonginasida barpo bóldi. Góyo bevaqt vafot qilgan onasi tepasida qayghuga chómgan hassakash farzand kabi. Otam óz shaharlarining ótmishdagi noyob va shonli tarixini chuqur bilgan holda, juda e'zozlardilar va uning tabarruk nomini keyinchalik ózlariga taxallus qilgandilar. Sovet sharqshunos olimlarlari «Bolasoghun bormi yo yóqmi?» deb tortishib yurgan yillarda otamiz bizlarni óz ona shaharlarining xarobalariga olib borganlar, u yerlarni kezganmiz, 70 ming kishi shahid bólgan ekan, ularning muborak qonlari tókilgan yerlarda tiz chókib ótirib, qur'on tilovat qilib, baxshida qilganmiz. Kezi kelganda, shuni aytib qolmoqchimanki, biz ózbeklar, ya'ni, ózbek turklari 1924 yilda belgilab berilgan «iston»lar chegaralaridagina yashab kelmaganmiz, balki butun O'rta Osiyo kengliklari va undan tashqarida javlon urgan, ulughlik shan-shavkatidan baxramand bir xalqmiz. Agar sanay boshlasam, bizning hozirgi jumhuriyatimizdan sirtda bólgan tarixiy shahar - kentlarimiz ichkaridagilardan kóp bólsa kópki, oz emas, mashhurligi ham kam emas. O'zidan Tóqmoqni nishon qilib qoldirgan Bolasoghun ham Tiroz (Avliyo ota), Turkiston, Forob, Xójand, Hirot, Sayram (Saryom) kabi ana shunday turklik maskanlaridan edi.

Otamizning bolalik va ósmirlik yillari... Buning bayonini bir lirik chekinish ruhida boshlash istagi tughildi, zero óquvchilarga bu ma'qul bólajak. Tasavvur qilaylik, ótgan asr oxiridagi sahni keng, bogh-roghli ózbek hovlisi. Yer tandirga ót qalangan, buvimiz non yopish taraddudida, besh yashar óghillari - Alixontóra ona atrofida uymalashib yuribdi. Ona bir zum uyga kirib chiqquncha gódak yóqoladi. Birdaniga tomirda qonni tóxtatadigan faryod eshitildi:- «Voy dod, bola nobud bóldi, kuydi!» Oyoq yalang yugurib chiqqan Shokirxontóra yer tandir tomon otildi. Kóziga góyo tush aralash qizigan tandir ichida, chógh ustida tipirchilab turgan, ghujanak bólib olgan farzandi kórinadi. Tortib oladilar. Xoh ishoning, xoh ishonmang - bola soppa-sogh, kuyganlikdan deyarli asorat yóq edi. Voqeaga shohid bólgan oqsoqollar dedilarki:- «Karomat sodir bóldi, inshoolloh! Bu óghil ótda kuymas, suvda chókmas Vatan óghloni bólajak, gharib dinimizga quvvat bergusidir!»

Oradan bir yilcha ótganda bólgan yana bir voqea: Qurbon hayit bayrami kunlari edi. Bir tóp bolalar quvonishib, shovqin-suron solishib masjid yonidan ótib borardilar. Guruhdan birgina bola ajrab, masjid darvozasi oldida taqqa tóxtab qoladi. Ichkaridan «huv Olloh, huv» maqomida aytilayotgan haq taolo zikri uning borlighini chulghab olgan, butun vujudi bilan titrardi, kózlaridan duv-duv yosh oqardi. Shu ahvolda zikr davrasi tomon yaqinlashdi. Darveshlarningh keksasi buni kórib turgan edi, bolani yerdan azot kótarib, davra órtasiga olib qóydi. Shundagina u asta-sekin óziga kelib, norasida ingichka ovozi bilan zikr oqimiga

qóshildi.

Bolalikdan óchmas xotira bólib kolgan boshqa bir voqea ham diqqatga molikdir. Shundoqki, otamiz 10-11 yoshlarida buvamizdan bir chiroyli qulun hadya olgan ekanlar. Uni mehr bilan parvarishlab boqib, yuvib-tarab, óstirib, toy bólib qolgan kezlarda, bir kun bolalar yugurib kelib deydilarki: - «Alixon! O'tkinchi qozoq órislari toyingni olib ketyaptilar». Bu órinda shuni eslatib ketish kerakki, oq poshshoning erkalari hisoblangan kazaklar ósha vaqtlarda mahalliy xalqning xohlagan uyiga kirib, istagan narsasini tortib olaverardi, mol-chorvasiyu, yilqisini ham haydab ketaverardi. Ularning qilichi va óqidan, kaltagidan omon qolgan jabrlanuvchi esa dardini kimga aytsa aytaversin, baribir befoyda edi.

Buva-buvimizning «hay-hay»laganiga karamay, bunday zulmga chidayolmagan ota-miz, boshqa otga minasolib kazaklarni quvib yetadilar va jon holatda toychoqning bóynidan mahkam quchoqlab oladilar. Bosh-kózlari mómataloq bólib, qamchi zarbidan qon shar-shar okayotgan bólsa-da, uni toychoqdan ajrata olmaydilar. Oxiri, kazaklar xaloyiq tóplanayotganini kórib, qól siltagancha óljadan voz kechib, sókina-sókina jónab qoladilar.

Otam rahmatlidan boshqa gharoyib kechmishlarni ham ancha eshitgandim. Biroq mazkur uch voqea mening tahlili ojizimga kóra, bir mantiqiy butunlikka ega. Ya'ni, ósha, yurt boshiga qaro kunlar tushganda, ona Turkistonimiz baghrida ótda kuymas, suvda chókmas, dushmanga egilmas farzandlaridan birini yorugh dunyoga keltirdi.

Mana shunday muhit hukm surgan bir davrda, Shokirxontóra tutkunlikning chirkin ruhi singib qolmasin, hamda ilghor islomiy tarbiya olishsin degan maqsadda ikki ósmir óghillari Olimxon va Alixonni Makka shahriga olib ketib, u yerda óqishga joylab, ózlari ham muayyan muddat turib, qaytib keladilar. Tahsil yillari sermahsul bóladi. O'sha vaqtlari ikki haramdagi óquv yurtlari mudarrislarining aksariyati turkistonliklar bólib, otalarimiz musofirlikdan kóp ham aziyat kórmaganlar. O'rni kelganda, aytib ótish kerakki, vatandoshlarimiz asrlar davomida butun arab olamiga bilim berib kelganlar va shu muborak an'ana hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Bu kabi ulugh darajada islom ma'rifatini taraqqiy ettirib, jahon madaniyatiga muttasil hissa qóshib kelayotgan ekanmiz, bundan hakli ravishda faxrlanmoghimiz lozim. Padari buzrukvorimiz tughma ilm oshighi bólganliklaridan ikki haramdagi talabalik yillarida arab, fors, turk tillarini fasohat va baloghat darajasida egallay oldilar. Ilohiyot ilmlaridan tafsir, hadis hamda fikh (islom huquqshunosligi), mantiq sohalarida ta'lim oldilar. Siyosat va harbiy ilmga qiziqish ham ósha davrlarda kamoliga yetgan bólishi kerakki, dadamlar bósh bóldi deguncha usmonli turk harbiy qismlari joylashgan qarorgohga ketib qolaverar ekanlar, ba'zan ertadan - kechgacha askariy kórik, harbiy mashqlar, tóp, aslaha-qurollarga mahliyo bólib qolib ketar ekanlar...

Arabistondagi tahsil ma'lum darajaga yetgach, buvamiz tashabbusi bilan shu ikki óghillari ókishni Buxoroning amir Olimxon madrasasida davom ettirishadi. Ilmga munosabat jiddiyligini shundan ham bilish mumkinki, uzoq yillar Vatanni kórmagan ikki óghil uyga tushirilmayoq Toshkentdan Buxoroi sharifga olib ketiladi. Bu yerda yuqorida kayd etilgan bilimlar bilan bir qatorda otam she'riyat, musiqa, jughrofiya, handasa, falakiyot, tarix, tabobat ilmlarini qunt bilan órgandilar. Talabalik yillarining serunum bólganligining sabablari ustida tóxtalsak, birinchi musabbib, albatta, Olloh bólsa, keyingilari, bu ota-onaning óz farzandlarini Qur'oni karimning «Ilm olish har bir musulmon va muslima uchun farz», kórsatmasiga astoydil amal qilgan holda, bilimga jiddiy raghbatlantirish hamda buning samarali natijasi ólaroq, otamizning ózlarigagina xos mutoala uslubi va sa'y-harakatlaridir. Olingan tahsilni fakat saharlab takror mashq qilish, dars tayyorlayotgan vaqtda qorinni tóydirib olmaslik, qiyin mavzularni ózlashtirishda yuqori saviyali talabalar bilan muhokama va munozara qilib

haqiqatni aniqlash, mudarrislarga ularning ma'naviy pokligi, bilimining chuqurligi va óqitishda xolisligiga qarab baho berish, domlalarga sodiqlik, bir saboqni tólighicha tushunmay keyingisiga ótmaslik va shu kabi talablar, dadamning óz sózlaricha, mazkur uslubning koidalaridan edi. Vaholanki, faqat Shokirxontóramgina emas, balqi aksariyat Turkiston ahli ósha vaqtda ziyosidan umid qilgan Buxoroi sharifda ta'lim-tarbiya ishlari óz zamonasiga kóra juda ortda edi. Bu haqda óz xotiralarida shu mazmunda gaplar bor: «XX asr boshida Buxoroda amir tuzumi chirib kolgan bólib, óquv-óqituv ishi órta asrlardagidek edi. Ikki yuzdan ortiq madrasada dunyoviy fanlardan saboq berish yólga qóyilmagandi. Bu sohalardagi mudarrislar óz uylarida bekitiqcha xususiy darslar berib, boshqa kasb-korlar bilan tirikchilik qilishga majbur edilar. Peterburgdagi amirning homiylarini xuddi shunday ahvol qoniqtirardi. Madrasalarda xujra sotib olib, nomigagina mullavachcha bólish maishat qilishning bir turiga aylangandi. Ne-ne layoqatli Vatan bolalari ózlarining bebaho umrlarini zax va qoronghu hujralarda sermashaqqat arab va fors tillarini órganishgagina sarflab zoe ketkizardilar, chunki, barcha óquv qóllanmalarimiz shu ikki tilda yozilgandi. Asosiy bilimlar qolib ketib, kópchilik talabalar fikh fanidan amal-taqal qilib tahsil olardilarki, bu bechoralarning sónggi maqsadi qozi bólish va shu orqali osongina tirikchilik qilish edi. Biz bilan madrasadosh Sadriddin Ayniy ham «abadiy talabalar»dan bólib, óqishdan hafsalasi pir bólgandi, boy mullavachchalarga xizmatchi hujradosh edi. Oghzidan papiros tushmas, soghlighini yóqotgan, bósh qoldi deguncha shaxmatdan nari ketmasdi...

O'zim ham shular kabi chalamulla bólib qolmaslik uchun madrasa saboqlarini tóla ózlashtirish bilan bir qatorda boshqa fanlardan yetuk hisoblangan mudarrislarni topib, haq tólab, hususiy darslar oldim. Rasmiy va norasmiy ravishda man etilgan adabiyotlarni mutoala qildim, turk va tatar gazet-jurnallarini qóymay óqib bordim. Shuni bildim va iqror qildimki, haqiqiy olim bólish uchun beshikdan to lahadgacha bólgan davr ichida tinmay óqimoq, óqimoq, óz ustida ishlamoq lozimdir».

Xullas, asrimizning óninchi yillari boshida ikki aka-uka Buxoroda tahsilni nihoyasiga yetkazib, ustozlaridan oq fotiha oladilar. Otamiz, órgangan bilimlaridan birini amaliy mutaxassislik darajasiga yetkazgandilar, u ham bólsa mashhur sharq tabobati edi.

Bayonimizning shu qismini yuqorida qayd etilganlar bilan chegaralasak, Alixontóra talabalik yillarida atrofidagi voqelikdan ajralib, faqat ilm órganishga shónghib ketgan ekanlar-da, degan bir qadar noqis xulosaga kelish mumkin. Shuning uchun yana ilova qilardimki, mazkur davr ichida otam yosh bólsalar-da, ghayratli ijtimoiy arbob bólib yetishib qolgandilar. Masalan, ul kishining shaxsiy namunasi va tashabbusi bilan mullavachchalarning mudarrislar bilan muomalasi jiddiy yaxshilanib, kópchilik madrasalardagi ózaro loqayd munosabatlar ijobiy tomonta ózgara boshladi. Bunga esa bir voqea turtki bólgandi. Har kungi, odatdagi saboqlar tugash sóngida talabalardan birovi yetuk mudarrislardan birini ul kishi yóq paytda) kópchilik ichida jismoniy nuqsonini pesh qilib «zanjiy» (negr, qora) deb mazax qiladi, haqoratlay boshlaydi. Otamiz buni tiyib qóymoqchi bóladilar. O'rtada qattiq mushtlashuv chiqib, ikkala mullavachcha qonga belanib, ólar holatga yetsalar ham tashlashaveradilar. Ularni ajratishadi. Tópolonni eshitib, bosh mudarris yana qayta keladi, shogirdlari jim turgan holda uning tanbehini eshitadilar. Nima sababdan urush chiqqanini mullavachchalardan biri «gullab» kóygach, ul kishida bir ózgarish sodir bóladi. Turgan joylarida tiz chókib, mómataloghi chiqib ketgan shogirdi oldiga hammaning oldida tizzasida yurib kelib, uning qóllaridan ópadi. Kózlarida shashqator yosh, bóghiq ovoz-la, nido qiladi: «Alixon, buyuk olim bólghusisen! «Qora bólsa ham sevikli ustozim», deb, men uchun urishibsen. Mei sening ustozing emas, men sening qora qulingman!» Ustoz, shogird yighlashgan, tóplanganlar barchasi yighlab duoga qól kótarishgan. Shu kundan e'tiboran madrasada muhit soghlomlasha boradi...

Bundan tashkari otamiz Buxorodagi barcha sunniy mazhabdagi talabalarning tan olingan jasur yetakchilaridan ham ekanlar. O'sha vaqtlar amir a'yonlari doiralaridan boshlab ahli Buxoroga yoyilayozgan shialikka keskin ravishda barham berishda mullavachchalarnint chiqishlari hal qiluvchi rol óynagan bólib, otam rahmatli bu harakatning eng oldingi, hayotga xatarli saflarida bólgandilar. Biroq, kóp ótmayok, mazhabchilik kurashlari musulmonlarni asosiy dushman oldida zaiflashtirishini anglab, bu boradagi ziddiyatlar kundalik siyosiy ahvol talablari oldida uchinchi-tórtinchi darajadagi masalalardan deb hisoblay boshladilar va musulmonlar birligini hammadan yuqori qóya boshladilar. Mavjud siyosiy oqim va partiyalar dasturlarini sinchkovlik bilan órgangan bólsalar-da, bironta-bir firqa yoki siyosiy tashkilotga a'zo bólishdan ózlarini tiydilar. Yevrupoparastlikning ongli raqibi bólganlikdan, umuman gharb sotsial-demokratiyasini va buning bólshevistik rus shaklini eng zararli, Turkiston uchun yetti yot begona hisoblardilar.

Ona shaharlari Tóqmoqqa qaytib kelgach, keng diniy ma'rifatchilik faolnyati bilan xolisona shughullanadilar. Tirikchilikni esa halol otameros kasb - dehqonchilik hamda tabibchilik bilan tebratib turadilar.

Bu orada birinchi jahon urushi boshlanib, chor ma'muriyati mahalliy aholini front ortida (yoki frontning ózida) ishlatish uchun mardikorlikka safarbar qila boshlaydi. Mana bu siyosatga qat'iy ravishda va ochiqdan-ochiq qarshi chiqib, aholini ommaviy tarzda bóysunmaslikka, óz farzandlarini mardikorlikka bermaslikka chaqiradilar. Shu bahona bólib, chor maxfiy politsiyasi tazyiq choralarini kóra boshladi, biroq xalq ommasi ghazabidan chóchib, otamizga zarar keltirolmadi, óshanda.

1916 yili esa Turkistonda oq podsho zulmiga qarshi qator xalq qózgholonlari bóldi. Otam qirghizlarning qurolli chiqishlarida faol qatnashdilar va ular shafqatsizlarcha bostirilgach, Qoshgharga siyosiy qochqin sifatida ketishga majbur bóldilar. 1917 yilgi Uktabr tóntarishidan sóng, shórolar butun dunyoga jar solib hurriyatlar xaqida bergan va'dalaridan umidvor holda, vatanga qaytdilar. Ammo, kóp vaqt ótmayok real voqelik butunlay boshqacha bólib chikadi. Sinfiy kurash ta'limotining amaldagi kórinishi bólgan qizil terror dahshat solish) natijasida mahalliy aholining yoppasiga qirghin qilinishi, diniy va umuman óqimishli arboblarning muttasil ravishda yóqotilishi, sun'iy ocharchilik vujudga keltirib, aholini iqtisodiy tomondan yangi xokimiyatning huquqsiz qullariga aylantirilishi va shu kabi mudhish tadbirlarni kórgan va eng asosiysi, aksariyat xalqdan farqli ólaroq, buni chuqur tushungan Otamiz, óz-ózidan sovetlarning tabiiy dushmaniga aylanadilar. Mana ósha davrlarda kechmish-kechinmalarini xotirlab yozgan esdaliklaridan kichik lavha: «1919 yil oxirlarida Pishkakka qarashli Qorabolta, Oqsu bólib, ón sakkiz rus qishloqlari birlashgan holda kommunistlarga karshi qózgholon kótarishdi. Boylikka botib yotgan Pishkak, Sóquluk dunganlari ham tushunmaslikdan bu ishga qóshilib qoldilar. Natijada tortqilik butunlay ular ustlariga tushib, eng oghir zarbalik kaltaklar boshlarida ushatildi. Shundoqki, besh yuz uylikka yetmagan Pishkak, Sóquluq dunganlaridan sakkiz yuz kishini haydab kelib, bozor órtasida pulemyotga tutdilar. Bular ichidan óq tegmay kolgan yoki yarador bólib joni chiqmay turganlarini qizil askarlar oralab yurib, nayzalab óldirdilar. Qózgholonchilar markazi bólgan - besh ming chamali aholisi bor Oqsu qishloghi ruslaridan esa, ilgari-keyin bólib, ólim jazosi kórganlari óttizdan oshmagan edi.

Sóquluk dunganlarining tuzlarini totib, yaxshiliklarini kóp kórgan edim. Ularning ichida ishonchlik shogirdlarim va dóstlarim kóp edi. Bunday vaqtlarda, borish xatarlik bólsa ham, chidab turolmay, uch-tórt shogirdlarim bilan bir arava kishi bólib, Sókuluq tomonga yól tortdim, yaqinlashib borgan sayin bundagi kóz kórgan kóngilsiz narsalarni til sózlab, qalam yozib chidayolmaydi. Mahalla kóchasidan ótayotganimizda, yól bóylab alan-bulan qoldiklari, sochilib yotgan narsalar, kuydirilib-yondirilgan imoratlar ichida vayron, talqoni chikib yotgan

tomlari kózga.... edi. Bularni kórgach, kózyoshimiz qurimasdan shu yurganimizcha, mazlumlar qonlari bilan bóyalgan Sókuluk kishloghiga kirdik. Bu voqea ótib, ortidangina borganligimiz uchun musulmonlar otilgan-chopilgan kóchalardagi konlar tozalangan bólsa ham, boshqa belgilari yóqolmagan edi. Soqchi kishilari bizni boshqa yoqdan kelganimizni kórgach, oldimizdan tósib idoralariga boshladilar. O'lganlarning xotin-qiz, yetim bolalariga atalgan bir qancha buyum, kiyim-boshlarni kórsatib, yordam uchun kelganimizni bildirdik. Sóngra yól xatlarimizni tekshirib, bizga ruxsat bergan bólsalar ham, yana oramizda ishonmaslik paydo bólib, anchagina sóz ótmish edi, ma'lumdirki, mahkumiyatda ezilgan, qurolsiz, duduq yillar, gholibiyat zulmi bilan ghururlanib turgan, har birining tumshughidan tónghiz qurti tushgan qurollik shahdam yillar oldida nima deya olardilar?

Intizomlik askarlarga, kurolli kuchga, tili bólak, dini bólak bir yighindi, qóli kuruq kishilar qanday karshi tursinlar? Tabiat olamiga Ilohiy tomonidan yuborilgan ulugh payghambarlar ham shu tabiat qonuniga bóysunmasdan boshqa hech choralari yókdir. .

Urush fanlarining konuni bóyicha askarning son-salmoqlari, kurol-jabduq va askariy intizomlari eng bólmaganda dushmannikidan tuban va oz bólmasligi birinchi shartdir. Agar shu sharoit qólga kelar ekan, u holda diniy, milliy hakoratga bóysunmasdan dushmanga qarshi kurolga qól sunish, albatta, farz bólur. Bunday bólmagan taqdirda, ózini ótga órinsiz urishdan saqlanib, vaqtincha sabr qilishdan boshqa chora yóqdir.

Shu bilan gholib dushman oldidan qandaydir qutulib chiqqanimizdan sóngra yordamga keltirgan ozdir-kópdir narsalarimizni tarqatdik. O'lganlar oilalariga kóz yoshimiz bilan Qur'on óqib, kóngil aytdik. Bu foydasiz fitnada mening óz shogirdlarimdan yigirmadan ortiq kishi shahid bólmish edilar. Ulardan eng kattalarining yoshi óttizdan oshmagan edi...» Tabiiyki, ólka xalqlari nomidan hokim bólib olganlarning qahrli nazari tez orada otamizga ham tushdi. «Qora róyxat»ga olinganlari ma'lum bólib qolgach, yaqin dóstlari va mahalla ahlining maslahati bilan yana Qoshghorga hijrat qilishga tóghri keldi. Taxminan bir yildan sóng qaytib keldilar. Buning sababini tushuntirib ózlari shunday yozadilar: «Endi bu yerda qancha turgan bólsam, menga hamkor bólgudek, kelajak uchun qayghurgan bir kishi bólsin, kóra olmadim. Afghoniston, Hindiston chegaralari bóshligidan foydalanib u tomonlarga ótishimni óylagan bólsam ham, yolghiz bosh qayghusida, bola-chaqalardan ajrab, suyukli vatanimni dushman kóliga tashlab ketishni ózimga loyiq topmadim. Shuni bilmak kerakkim, Qur'onning hukmiga, Rasulullohning yóliga yaxshi tushunmay dinga xiyonat qilgan, ikki dunyosidan ajrab óz vatanida xorlik bilan yashagan yolghon musulmonlardan ilm-fan, madaniyatni ózlashtirib, butun huquqlariga ega bólgan kofirlar, albatta, ortiqdur. Bu kun Uyghuristonni qoplagan ongsizlik ofatini kórgach, u yerdan umidim uzilib, nochor, yangidan ót olayotgan fitna óchoghi ichidagi óz yurtim Tóqmoqqa qaytib keldim. Qarasam, soyasidan qórqqan quyondek har yerda qochib-pisib yurib kun kórayotgan haqsiz kishilar ham oz emas ekanlar. Shular qatori men ham shahardan chetroq Shórtepa degan dunganlar qishloghida turib, dehqonchilik bilan kun kechirmoqchi bóldim».

Biroq ancha kuchlanib olgan shórolar (Qirghizistonga nisbatan aniqroghi, qizil bólib olgan órislar) hokimiyati ostida aholi turmushining muttasil tubanlashib, ayanchli holga kelishi otamizni yana tengsiz va xatarli qurashuv girdobiga tortdi. Bu boradagi faoliyatlarining menga asosan ikki yónalishi ma'lum. Birinchisi - qoghozda bólsa ham tan olingan vijdon erkinligi huquqidan foydalanib, Islom dini va madaniyatini davlat siyosati maqomidagi jangovor ateizm deb atalgan yovvoyi dahriylikning surbetlarcha xurujidan hmmoya etish edi. Buni amalga oshirish uchun naqshbandiylik suluki talabalaridan vaqtincha istisno qilib, xalq talabiga binoan Tóqmoq katta masjidiga imom bólib ótadilar va kóp mashaqqat, tazyiqlarga qaramay katta hududda Islom ta'sirining kuchayishiga erishadilar. Ayni paytda, Rasuli akram kórsatmalariga oghishmay rioya qilgan holda óz davrlaridagi ijtimoiy ahvolni sinchkovlik bilan tahlil qila

borib hamda minbar imkoniyatlaridan yaxshi foydalanib, axoli siyosiy ongini yoritish yólida tinmay sa'y-harakatda bóldilar. Xususan, Qóqon muxtoriyati tuzilishi va uning bólsheviklar tomonidan zóravonlarcha yóq qilinishi, bosmachilik deb atalib qolgan xalq qurolli harakati haqida tarixiy faktlar bilan dalillangan yozma xotiralari hozir ham óz ahamiyatini yóqotgan emas. Otamiz fikrlaricha, kózgholonchilarda, afsuski, mustaqillikka kurashishning aniq rejasi bólmagan, yólboshchilar aksariyatining siyosiy saviyasi kuyi edi va buning natijasi ólaroq ozodlik harakatida birlik-jipslik mavjud emasdi. Okibatda sovetlar óz qólimiz bilan ózimizga kishan urdirishga erishganlar.

Otamizning qayd etilayotgan davrdagi faoliyatlari, faqat din himoyasiga qaratilgan har qalay ochiq bajarilgan ishlar bilan chegaralanib qolmagan, albatta. Marhum Azizaposhsha opam menga sózlab bergandilarki, otamiz qosimovchilar harakati deb nomlangan vatanlarvarlarning yashirin faoliyatida ham qatnashib, ushbu tashkilotning Pishkak, Tóqmoq tomonlardagi vakili bólgan ekanlar. Men mazkur harakat rasmiy adabiyotda aksilinqilobiy deb baholanishini va chekistlar tomonidan tor-mor etilgan deb qayd qilinganliginiyoq bilganimdan hamda otamning bu tashkilot doirasida olib borgan ishlaridan yetarli ma'lumotim yóqligidan, bu órinda taxminiy sózlar bilan ortiqcha qoghoz qoralashni ep kórmadim. Faqat ta'kidlamoqchi edimki, otamiz mustaqillik uchun kurash deganda, aniq maqsadli yaxshi tashkil etilgan, muayyan intizomli va jonfidolik ruhi bilan sughorilgan harakatni tushunganlar va buning imkoniyati bólar ekan, hech vaqt chetda sukut saqlab qarab turmaganlar.

O'ttizinchi yilga kelib oltinchi marta hibsga olinadilar. Avvallari qisqa muddatli bólsa ham, bu sónggisi ón yillik qamoqqa hukm bilan tugaydi: O'sha vaqtlarda, Solovki, Arxangelsk tomonlardagi borsa-kelmas hibsxonalarga jónatishdan avval hukm etilganlar Toshkent chekkasidagi kontsentratsion lagerga tiqilar ekan. Ana shu yónalishda etap qilinishlariga sanoqli kunlar qolganda, Olloh yordami bólghaykim, Pishkak turmasidan qochishga muvaffaq bóladilar. Yashirinib yurib, kóp azob-mashaqqatlar chekkan holda, yana chegaradan Sharqiy Turkiston (Uyghuriston)ga ótib ketadilar. Xitoy davlatiga qarashli bu ólkaning G'ulja shahrida turib, ma'lum vaqt ótgach, yana dóstlar yordamida katta pul evaziga oilalarini ham chaqirtirib oladilar. Asl niyat - shuncha azoblardan keyin, Turkistondan, umuman, Arabiston tomonlarga ketish bólsa-da, bu yerdagi siyosiy ahvol yomonlashib, chegara yóllari taqa-taq bekilganlikdan turghun bólib kolishga tóghri keldi. Gap shundaki, óshal vaqtdagi SSSR rahbarlari jahon proletar inqilobini orzu qilibgina qolmay, balki uni sun'iy ravishda boshqa mamlakatlarda keltirib chiqarish siyosatini amalda qóllardilar. Maydoni O'zbekistondan kamida ikki baravar katta Sharqiy Turkiston Xitoyning chekka, sovetlarga kóshni gharbiy ólkasi ólaroq, ushbu siyosat sinalayotgan tajriba maydoniga aylangandi. Yerli hukumat markazni ghaflatda qoldirgan holda, SSSRda yashirin óqitib tayyorlangan yoxud qizil mafkurada bólgan sovetparast kimsalar qóliga ótib qolgandi. Bu yerning barcha dókon va bozorlari arzon va asl sovet mollari bilan liq tóldirilgan, hamma joyda SSSRdagi misli jannat kabi hayot tarzi hakida tashviqot kuchaygandi. Ayni shu vaqtda esa, jahondagi birinchi proletar davlatida kahatchilik va ocharchilik bólib turgandi.

Nima bólsa-da, otamiz tez orada ilmiga amal qiluvchi allomaligi, halolligi, jasur inson va hojatbaror shifokor - tabibligi tufayli kópchilik órtasida obró-e'tibor qozona oldilar. Ayniqsa, ózbeklarga yaqinlikda tengi yóq qardosh Uyghur xalqi ózining chin ixlosini darigh tutmadi, balki boshlariga kótardi. Dadamning mavqelari, xususan, barcha musulmrnlar va boshqa millatlar órtasida, ham ózaro ishonch va hamjihatlikni mustahkamlashda kórsatgan fidokorliklari natijasida juda xam kuchayib ketdi. Shu maqomga yetishgach, omma oldidagi chiqishlarida hurriyat uchun kurashga kótarilish ghoyalarini ochiq targhib qila boshladilar. Xuddi shu sababli dadamlar 1937 yili Uyghuristonda diktator bólib olgan, aslida sovetlarning qóghirchoghi, avantyurist xitoy generali Shen Shitsay tomonidan hibsga olinib, sudsiz -

hukmsiz umrbod qamoqqa tashlanadilar. oilaga katta zulm qilinib, uy-joy musodara bóladi.

Mushtariylarni «1937 yil» sanasi sergaklantirdi-yov! Ha-da, inqilobni eksport qilish birinchi navbatda kizil terrorni yónaltirish orqali boshlangan. Repressiya apparati shunday yaxshi ishlardiki, Sharqiy Turkistondagi shogirdlariga Maskovdagi GPU (Glavnoe politicheskoe upravlenie) ya'ni, Bosh siyosiy boshqarma, chekistlar idorasiningh ósha vaqtdagi nomi) otilishi-chopilishi lozim bólgan «Xalq dushmanlari»ning róyxatini tayyorlab berib, uni ijro qilishning namunalarini joylarga borib kórsatganlar. Ana shu tizimda faqat G'ulja shahri bóyicha ikki yuzdan ortiq baxtiqaro sovet Turkistonidan kochqin muhojirlar bólgan. Bir kechada hammalari hibsga olinib, róyxatga solishtirilsa bir odam yetishmagan. U ham bólsa bizning otamiz bólib, bu jallodlar kelishidan bir necha daqiqa avval, katta akam Asilxon sabab bólib uydan ich kiyimda qochgan ekanlar. Butun ólka bóylab kidiruv e'lon qilinib, ma'lum vaqtdan sóng chekka bir shaharchada ayghokchilar tomonidan qólga olinadilar, Shunda ham kamoqqa kela kelgunlaricha, yól-yólakay orkalaridan tópponcha va miltiq tirab keltirishgan ekan. Bir chinakam turish qilgan ózbek óghlonidan dushmanlarning chóchishini karang!

Xullasi kalom, 1941 yil ózini uncha-muicha ónglayozgan markaziy xitoy hukumati tomonidan ótkazilgan adliyaviy taftishlar natijasida otamiz turmadan chiqib keladilar, Xaloyiq ularni pólat irodali qahramon sifatida kutib oladi, chunki otamiz hurriyat uchun kurash yólidan zarracha chekinmagandilar.

Bu vaqtga kelib, SSSR hayot-mamot urushi bilan band, ólkada iqtisodiy va siyosiy inqiroz, Shen Shitsay ma'muriyati zil ketgan, xalq junbushga kelib, qurolli chiqishlar bólib turgan edi. Otamiz tarafdorlarini maxfiy «Ozodlnk jamiyati» tevaragida tóplab, vatannarvarlarning harakat birligiga erishadilar. Ushbu jamiyat rahbarlik qilgai 1944 yil 7-10 noyabr qurolli kózgholoni natijasida G'ulja shahri ozod qilinadi. Ikki kun ótiboq Sharqiy Turkiston Islom jumhuriyati barpo etilganligi tantanali e'lon qilyndi. Otamiz ón ikki vazirlikdan iborat inqilobiy hukumat raisligiga yakdillik bilan saylanadilar.

Endi, sovet hukumatining ham munosabati ózgargandi. Sharqiy chegaralariga ósha oghir davrda chankayshichi xitoylar tomonidan xavf tughilib qolmasligi uchun, yangi barpo bólgan musulmon davlatini bekitiqcha qóllab turish siyosatiga ótdilar. Jumhur rais ólaroq dadamlar yetuk ijtimoiy va davlat arbobi sifatida ish yurgizdilar. Ul kishi boshchiligidagi tom ma'nodagi milliy hukumat qisqa vaqt ichida mustaqillikdan umidvor xalq manfaatlariga mos bólgan yirik tadbirlarni amalga oshirdi. Irq, millat, jins, e'tiqoddan qat'i nazar har bir kishiga erkinliklar berilishi, ijtimoiy tashkilotlar tuzilishi, aholidan olinadigan soliqlarning ikki baravar qisqartirilishi, sobiq hokim millat vakillari iqtisodiy negizining tugatilishi shular jumlasidandir.

Otamiz 1945 yil 8 aprelda barpo qilingan Sharqiy Turkiston milliy armiyasining bosh tashabbuskori edilar. Demak, G'ulja qózgholonidan besh oy ótib, tarqoq, olomon partizan tóplari asosida muntazam armiya tuzilishiga erishildi. Xalqning milliy ozodlik ruhi óz raislariniki kabi yuqori ediki, ommaviy safarbarlik e'lon qilingan kunning ertasiga yaqin yuz ming kishi askarlikka yozilishga hozirlanib keldilar: Bularning kópchiligi otliq bólib, urush jamolghasini kórib kelgandilar. Qurol-aslaha O'zbekiston, Qozoghiston orqali yarim yashirin holda SSSRnnng tegishli idoralaridan naqd oltinga va molga-mol tarzida sotib olina boshladi. Xitoy qóshinlari bilan dastlabki janglardan sóng kóplab tusha boshlagan harbiy óljalar evaziga navqiron milliy armiyani qurollantirish muammosi ham ancha yengillashdi. Ushbu inqilobiy qóshin óz ichidan G'ani botir (Uyghur), Fotik botir (totor), Usmon botir, Akbar botir (ikkovloni ham qozoq), general Palinov (óris) kabi qator dovyurak, jasur va mohir askarboshilarni yetishtirib chiqdi, raziyalohu anhu.

Alangali qózgholonlar davrida va muzaffariyatni mustahkamlashda harbiy iste'dodlari tan olingan otamiz jumhuriyat qurolli kuchlarining suyangan toghi bólib, milliy armiya jangovar qobiliyatini, ayniqsa, ma'naviy ruhini kótarishda jonbozlik kórsatdilar. Bevosita ishtiroklarida tuzilgan harbiy operatsiya rejalari muvaffaqiyatli bajarilardi. Bu órinda otamizning yana bir noyob xususiyatlarini zikr etib ótmoqlik lozimki, ul kishi óz davrlarining misli kórilmagan notiqlaridan edi. Arab, fors, turkiy tillarining har bir shevayu lahjasida bulbul kabi fighon-nola qila olardilar yoki arslon kabi na'ra torta olardilar. Ayniqsa, ona tillarining hali biz tagiga yetolmagan beadad imkoniyatlaridan foydalanib shundayin silliq uslubda sózlar ekanlarki, millatidan kat'i nazar, bir oz turkiydan xabari bor tinglovchi bemalol tushunaverar ekan. O'sha suronli davr voqealarining kópgina shohidlari, jumladan, uygur yozuvchisi Abduqodir Zunnun shunday gapirib bergandi: «Tóram nutqlarini tinglash uchun odatda kóp minglab odamlar yighilishardi. Sóz boshlaganlarida pashsha uchsa eshitiladigandek jimlik chókardi. Mavzuni tinglovchilarga darrovoq ayon qilib, uning asl hakiqatini óz bilganlaricha yoki hukumat farmoniga kóra emas, balki Qur'oni karim oyatlari hamda Payghambarimizning hadisi shariflari asosida isbotlardilar. Yana buni ótmish va yangi tariximizdan rad qilib bólmaydigan dalillar keltirib mustahkamlardilar va mavzuni, albatta, kundalik voqelikning dolzarb masalalariga, jumladan, nutq mavzuiga bevosita boghlardilar. Aniq vazifalarga ótib, ularni muvaffaqiyatli bajarish yóllarini kórsatalardilar va bunga tinglovchilarni kótarinki bir ruh bilan ishontirardilar. O'rtada, istiqlol yólida jonbozlik qilgan va qilayotganlarning sharafli nomlari, albatta, qayd etilar va eshituvchilar bundan qattiq ta'sirlanardilarki, bolaxonalarga, daraxtlarga, simyoghochlarga chiqib olgan tinglovchilar hissiyot zóridan ózlarini tashlab yuborardilar».

Yigirma bir sovet harbiy nipyunlari kavaleri, ósha paytda, Sharqiy Turkistonga harbiy mutalassis bólib borgan toshkentlik Tolibjon aka Obidov aytadilar: «Alixontóram janoblari jang boshlanishidan avval askarlar oldida nutq sózlaganlarida, yigitlar kózlaridan ót chaqnar, nutq tezrok tugasayu jangga otlansalar. Hujumga kómonda bólgancha ularni zórgha tóxtatib turardik. Jangovar ruh va ghalabaga ishonch juda kótarilib ketardi. Tóra otam okop kórgan haqiqiy askarboshi edilar va men havas qilgan tomoni - bunday rahbarlarning baxtlisi edilar. Chunki, har bir askar u kishini cheksnz sevardi, hurmatlardi, hatto ilohiy quvvat egasi deb chinakamiga ixlos qóyib ezozlardi».

Xullas, milliy armiya shiddatli janglarda ketma-ket ghalabalarga erishib, shon-shavkatga burkandi. Jumladan, 1945 yili ushbu kóshin qismlari son jihatdan deyarli uch baravar oz bólishiga qaramay, markaziy Xitoy hukumati tomonidan yuborilgan, yaxshi qurollangan sakson ming kishilik armiyasini butunlay tor-mor etdi. Xalq va armiya oldidagi xizmatlari uchun Sharqiy Turkiston hukumati qaroriga binoan otamizga marshal unvoni berildi. Tez orada ularni butun ólka xalqi «Marshal ota» deb atay boshladi.

Endi, Sharqiy Turkiston voqealarining dostoni uzun bólganligidan gapni muxtasar qilsak, ish shu bilan tugadiki, «Uch viloyat inqilobi» deb nomlangan otamiz rahbarligidagi milliy ozodlik harakati Sintszyan (Sharqiy Turkistonning xitoycha nomlanishi, «Yangi yer» demak)ning qolgan qismida ham tezda gholib bólajagidan chóchigan Chan Kayshi hukumati tinchlik muzokaralari olib borishga majbur bóldi, Biroq, voqealarning bunday ketishi, ya'ni, bir mustaqil Turkiston davlatining qurilib qolishi yangidan hokimiyatga kelayotgan Mao Sze Dun kommunist hukumatiga va bularni óstirib yuzaga chiqargan, uzoqni kórolmagan sovetlar mamlakatidagi piri-ustozlariga yoqmadi. Natijada, xoinona tuzilgan mash'um rejaga kóra otamizni 1946 yil iyunida avval aldov, keyin esa qurolli tazyiq ostida G'uljadan olib chiqib ketdilar. Pinhona yóq qilib yuborish móljallangan bólsa-da, bu ishdan Xudo asrab, ikki yil davomida uy nazarbandisi holatida saqladilar. Keyinchalik bilsak, milliy armiya qismlari dadamlarning qaytarilishlarini talab qilishibdi. Ayniqsa, qozoqlardan iborat qóshinlar bunda qat'iylik kórsatganlari, Usmon botir boshchiligida ancha vaqt qurolli qarshilik qilganlari bizga

keyinroq ma'lum bóldi. Otamiz ruhi va zurriyotlari nomidan ósha tengsiz kurashga kirgan va bu yólda qurbon bólgan qahramon qozoq birodarlarimizga kech bólsa-da, abadiy minnatdorligimizni izhor qilib, hotiralari hurmati-haqqi mangu bosh egamiz.

Otamizning sónggi óttiz yillik umrlari Toshkentda ótdi. Siyosiy ishlardan majburiy ravishda chetlashtirilgan bólsalar-da, ilmiy, ijodiy va ijtimoiy faoliyatni sobitqadamlik bilan davom ettirdilar. Maqolamiz boshida qayd etilganlardan tashqari mashxur venger sharqshunosi Hermon Vamberi asari «Buxoro yoki Movarounnahr tarixi»ni usmonli turkchadan ózbekchaga uyghunlashtirib ógirdilar. «Tarixi Muhammadiya», «Turkiston qayghusi» kabi katta asarlar yaratdilar. Mazkur asarlar kelajak avlod ma'naviyatini tanazzuldan asrash, fozila madaniyatimizdagi azaliy qadriyatlarni islom ma'rifati va yaqin tarix saboqlari vositasi-la saqlab qolish yólida qilingan ulkan jihod deb qarashni taqozo etadi. Yana bir óz asarlari «Shifo-ul ilal» («Kasalliklar davosi») sharq tabobati kóp yillik tajribasi asosida 1937 yilda yozilgan bólib, qancha-qancha musodaralardan omon qolgan biz uchun topildiq risoladir. Vatan ahli duoda bólib turishlaridan umidvormizki, boshqa ilmiy, ijodiy meroslari kabi ushbu kitobchani ham chop ettirib, xalqimizga yetkazajakmiz.

Otamiz umrlarining sónggi kunlarigacha ustozlik faoliyatini tóxtatmadilar. Qizil mafkuraga xizmatkor bólgan óshal davr konunlariking ta'qibiga qaramay, insoniy jasurlik, islomiy ijtihod, pir-ustozlariga bergan va'dalariga vafodorlik kórsatib, diniy va shuningdek, dunyoviy bilimlar ókitishni yólga kóyib yubordilar. Shogird tanlamadilar, shu uchun bólsa kerak, otamizning kóllarida bir vaqtning ózida hali xarf tanlamagan talaba bilan bir qatorda, ilmli yoki dunyoviy fanlar nomzodi, doktori kabi tinglovchilar ham ta'lim olaverardilar. Bir universal óqituv uslubining sohibi edilar. Bu harakatlari zoe ketmadi. Oq fotiha olgan shogirdlari óz Vatanlariga (ya'ni, Qirghiziston, Qozoghiston, Tojikiston, Doghiston, O'zbekiston shahar-qishloqlariga) qaytgach, ustozlarining ishini davom ettirib, diniy maktablar ochib, ma'rifat tarqata boshladilar. Shu bugungi O'zbekiston Islom dunyosining yetakchi namoyondalari safida otamizning shogirdlari haq din tantanasi yólida xolisona xizmat qilmoqdalar. Dunyoviy bilim sohiblari ichida, otamizdan ta'lim olgan ixlosmandlar orasida geolog olimlar kóproq edi. Akademik G'ani Mavlonov, hozirda fan doktori Saidorif Qosimov, qozoq akademigi Oqjon Mashanov janoblarini yaxshi eslayman. Dastlabki zikr qilingan ikki ustoz - shogird ózbek olimlari haqikiy millatparvar, óz sohalarida sezilarli yangiliklar kirgizgan ilm egalari bólsa, Okjon ogha forobiyshunoslikdan kerakli yól-yóriqlarni olib ketib, qozoq fani taraqqiyotida ovrupoparastlikka chek qóyilishiga erishgan ajoyib ilmiy arbobdir. Otamizning sharq tabobati borasida yetishtirib chiqargan hozir mashhur, iqtidorli shogirdlaridan Abdullo Boboev hamda Aben Sarioghochiy nomlarini ham tilga olmaslikning iloji yóq...

Otamiz tarixiy ahamiyatga ega bólgan me'morchilik obidalarimizni saqlab qolish harakatining jonbozlaridan ham edilar. Mening yodimda qolgani shuki, 50-yillar sóngida yo 60-yillar boshida, Toshkentdagi, hozirgi yangi Eskijóva bozori órnidagi yerda, yaqin 500 yil avval bino etilgan mó‘tabar Xója Ahror Vali masjidi bólib, shuni gumrohlarcha buzdilar. Bu kabi noxush ishlar boshqa joylarda ham boshlanayotganidan tashvishlanib, dadamlar ahboblaridan (yaqin dóstlari shunday nomlanardi) Karimboy aka Saxiboevni chaqirib maslahat soldilar. Bu zot sevimli shoirimiz Erkin Vohidovningh toghalari bólib, huquqshunoslikning piri edilar. Qaror shu bóldiki, Maskovdagi tegishli rasmiy idoralarni xatlar bilan «bombardimon» qilmoq lozim. Bu tadbir gharbda ham qóllanilishini keyin bildim - «paperkanono», ya'ni; «qoghoz bilan óqqa tutish» degan maxsus atama ham bor ekan. Bu harakat darrov natija bermagan bólsa-da, har qalay, bor masjid, madrasa, xonaqoh va shu kabilarning navbatdagi buzish kompaniyasini tóxtata oldi.

Ushbu, daryodan qatra kabi maqolam sónggi qismini padari buzrukvorimni oddiy inson hakida tavsiflovchi xususiyatlariga baghishlasam. Shaxsiy hayotda misli tarki dunyo kamtar edilar. Toshkentga kelgach, ne-ne koshonalar taklif etilsa-da, ikki oghiz xonasi bor mó‘jaz bir hovlini - «kulbai gharib» qilib ixtiyor qildilar. Biz ham turmush faqat shunday bólishi kerak ekan deb ósdik, bilsak, Rasululloh sallollohu alayhi vassalamning «Faqriy - faxriy» (ya'ni, «Faqirligim faxrimdir») hadisi shariflariga amal qilar ekanlar. Umr bóyi sovetlarning bir tiyinini ham olmadilar, hukumat nafaqa tayinlaganda, ósha zahoti Toshkent yetimxonalaridan biriga ótkazib yubordilar. Hatto, turgan hovlimiz u kishining nomida emas, ijarador maqomida ekanmiz. Hozirgacha ahvol shu-shu, ózgargan emas.

Saxovatli edilar. «Ikkita choponim bólsa, bittasini, unda ham yangiroghini birovga kiygizsam», deb kóp aytardilar. Qarz sórab kelganlarni hech quruq qaytarmaganlar, ularning nomlarini eslab qolish yo yozib kóyish u yoqda tursin, unutib yuborardilar.

Rahmdil bólib, kek saqlamas edilar. Bir misol. O'sha 1938 yil otamizni tutib, ortlaridan mauzer nuqib qamoqqa topshirgan ayghoqchi «Uch viloyat inqilobi» vaqtida qólga tushadi. Sud uni ólimga hukm qilib, xaloyiq «Alqasosu minal haq» deb turgan-da, otamiz avf qilganlar. «Besh bolasi yetim qolmasin, yana buning onasi tuqqanida yaxshi niyat bilan Muhammad deb nom kóygan ekan», deb dalil keltirgan ekanlar. «Kechiruvchilarni Olloh ham avf qilghusidir», hadisiga shunday amal qiladilar.

Otamiz taqdirning ne-ne sinovlaridan ótib, barakali, serunum va mazmundor umr kórdilar. 1976 yil Toshkentda 91 yoshda vafot topdilar. Sónggi maskanlari, vasiyatlariga binoan, Shayx Zayniddin bobo qabristoni bóldi, raziyallohu anhu. XX asr mazlumlari - Turkiston ahli istiqloli, Islom dini tantanasi yólida qilgan ulkai xolisona tarixiy xizmatlarini va valiy kabi siymolarini xalq chuqur hurmat, faxr va minnatdorlik bilan yodda tutib kelmoqda.

Esdaliklarida qalb titratar shunday satrlar bor: «Men bu dunyoga islomparastgina emas, balki insonparast bólib keldim va hayotim davomida shunga sodiq bólib qoldim». Ushbu zot shonli hayot yóllari bilan tanishar ekanmiz, bunga iqror bóla turib, Alixontóra kelajagi porloq ikki Turkistonning ghururi, jasur milliy qahramoni ham edi, degimiz keladi...

...She'riyat ilmidan xabardor va nazm qobiliyatidan buyurgan bólgandagina, bu sohada tahlil yósinida ish qilish mumkin, deb hisoblaganim uchun, oynoma sahifalarida berilayotgan she'rlarga baho berish vazifasidan uzoqligimni bildirib, uzr sórayman. Ayni paytda, ushbular haqida anchagina qiziqarli sharhiy ahamiyatga molik ma'lumotlar mavjud bólganligidan, ularni mushtariylarga bildirib qóyish foydadan xoli bólmas deb hisobladim.

Otam rahmatlining ukubatli óttizinchi yillar voqealarini tasvirlab, vatandan oxirgi hijrat qilib ketishlari sabablarini kórsatib yozgan xotiralarini kózdan kechira turib, unga ilova qilingan bir she'rni óqib qoldim. Mazkur she'r sóroq - iltijo ohangida «Bormisan?» deb nomlangan edi. Tasavvurimda: zindonga tushib kolgan, tashqi yorugh dunyodan butunlay ajratilgan, boshiga Kóhi Kofdek gham aghdarilgan bir oddiy inson gavdalandi. Yolghiz bir yól qolgan - yaratganning ózidan najot tilash, bizga quvvat ato qilsinkim, óz qólimiz bilan shu «zulm kopusin» (darvozasin) buzib, ozodlikka chikaylik degan orzu-niyat bor, bu murojaatda. Taxminimcha, mazkur she'r 60-yilda oqqa kóchirilgan bólsa-da, asli ancha ilgari yozilgan.

«Uyghon», «Elingni kutqar», «Vatan va ilm» kabi she'rlarining yozilishi sanalari haqida ham gap shu. Bular ancha kótarinki ruh bilan sughorilgan, alangali da'vat singari yangraydi. Istiqlolga birinchi navbatda imonni salomatlab hamda ongni ilm birla ziyolaganda erishish mumkinligi bot-bot ta'kidlanadi. Otamiz, «Noumid - shayton» degan aqidaga bir umr rioya

qilib kelganliklaridan óz kelajagiga ishonmagan, halol-haromni ajratmagan, e'tiqodga beparvo, ózligini tanishni ietamay, hatto bolalarini ótmish tarixidan, ildizidan bebahra qilganlarni yomon kórardilar. Ayniqsa, bundaylar ziyolilar orasidan chiqqan bólsa, nafratdan qaynab ketib, shunda ham tushungan-bilgan kishining achinishi bilan:- Eh, bunday olimlarga havas qilgan xalqimizning shóri qursin! Bu kabi ziyolilarning ishi qiyin, chunki ular Ibn Sino iborasi bilan aytganda, «murakkab johillar» guruhiga kiradi, ózlarining johilligini anglashni xohlamaydilar,- derdilar. Shu uchun mushtariyga qarata aytilgan «Dema: «O'zgarmas olam, ish bitibdur, na bólghay ertagi kun kim bilibdur?» satrlar bugungi kun voqeligi nuqtai nazaridan karasak, bashoratga óxshaydi.

Insonning fundamental huquqlari atamasida bir ajoyib tushunchalar majmui mavjud. Bu demak, insonning insonligini belgilovchi huquqlarki, bularsiz odam bolasi tilsiz, ongsiz hayvonga mengzab, kórinishdagina odam suratida bólgan maxluqqa aylanadi. O'z vataniga ózi ega bólish, maskan tutish, ózgalarga qaram bólmaslik, egadorlik, vijdon erkinligi huquqlari shular jumlasidan bólib, bularni talab qilish ruhini padarimizning «Har óghil voris bólur qolghon otaning moliga, qaysi millat ustidan boshqalar hokimlik qilsa, bundan ólim yaxshiroq, Vatanni sevmaganlar musulmon emas», kabi qalb qózghatar fikrlaridan anglash mumkin. Ayniqsa, vatanparvarlik mavzui naqadar kengligi, uning óz tarixiga, ona tiliga, tabiatga mehr bilan boghliqligi «Temur tuzuklari» tarjimasi sózboshida keltirilgan «Tarjimondan», «Til haqida» she'rlarida hamda «Qatralar»da lónda iboralar bilan tasvir etilgan. Amir Temurdek buyuk zotni tanqid qilishni (aniqroghi, unga tuhmat toshi otishni) óziga kasb qilib olgan, shonli tariximizni yerga urish bilan qorin boqqan ba'zi «olimlar»ga qarata, otamiz sohibqironni «Birov yaxshi dersa, birov der yomon, ulus sózidan kim qolubdur omon?» deya, baribir haqiqat yuzaga chiqishini ta'kidlaganlar.

Imon soghligi, ma'naviyat pokligi, oliy axloq va shu kabi qadriyatlar abadiyligini kuylash, ulardan bahramand bólishga da'vat ijodlarining muhim qismini tashqil etadi. Bu orada otamiz ilhomining bitmas-tuganmas manbai Qur'on ta'limotiga asoslangan Islomiy madaniyat durdonalari bólgan. Mazkur fikrga uyghun «Marsiya baytlari»ga diqqat qilaylik. Islom falsafasi aqidasiga binoan, dastlabki satrlardayoq hayot olami baqosizligi eslatilib, imkon bor ekan, «el yaxshiligin izla» deb da'vat qilinadi. Qadriyatlar qiyosida buning «yashab qol», «hayotdan ómarib qol» qabi ghofillar turmush tarziga poydevordek bólib qolgan qoidalardan naqadar ustun ekanligini isbotlashga hojat bólmasa kerak. Yana shuni ilova qilardimki, ushbu «Marsiya baytlari» dadam pinhona tutqunlikda turgan va hali qatl bólish xavfi boshlaridan arimagan bir paytda, katta onamiz Tojiniso ayamlarning fojiali bir ahvolda vafot etishlari munosabati bilan yozilgandi.

Sónggi sózim, bobokalon shoirimiz Mashrab Namangoniy muborak kalamiga mansub «Me'roj» (yoki «Rasululloh keladi») she'ri haqidakim, bu uzoq vaqt mobaynida mafkura zóravonligi natijasida man etilib, qataghonga uchragan ijod mevasidir. Unga xalqimiz ajoyib kuy ham bastalagan. Otamiz kelajak avlodga saqlab qóyaylik deb, uch aka-uka hofiz Sófixonovlarni chaqirtirib kelib, ular ijrosida magnitafonga yozdirgandilar. Mana endi, uni egalariga topshirmoqdamiz, shu kunlarga yetkazgani uchun yaratganga shukrlar bólsin.

"Sharq yulduzi" jurnali, 1992-yil, 7-son